

VOYAGA YETMAGANLARNI HUQUQBUZARLIK DAN JABRLANISHI OMILLARINING ILMIY TAHЛИLI

Shodmonov Ubaydulloxon To‘raxo‘jayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi huquqbazarliklar profilaktikasi
va kriminologiya kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Muallif tomonidan maqolada voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbazarliklar viktimalogik profilaktikasini samarali ta’minalash, eng avvalo, jinoyat sodir etilish sabab va sharoitlar zanjirida jabrlanishni keltirib chiqaruvchi omillarni tadqiq qilishni taqozo etishi ilmiy asoslantirilgan. Ayrim toifadagi voyaga yetmagan shaxslarning g‘ayri ijtimoiy xulq-atvori, hayot tarzi, atrofdagilarga bo‘lgan salbiy munosabatlari muayyan bir vaziyatda huquqbazarlik sodir etilishini taqozo etuvchi kriminogen omil sifatida, boshqa bir holatda esa huquqbazarlikdan jabrlanishini taqozo etuvchi viktimalogen omillar bo‘lib har qanday joydagi kriminogen vaziyatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etishi asoslantirilgan.

Kalit so‘zlar: voyaga yetmagan, huquqbazarlik, profilaktika, jinoyat, jabrlanuvchi, ob’ekt, sub’ekt, kriminogen omil, viktimalogen omil.

АННОТАЦИЯ

Автором статьи научно обосновано, что эффективное обеспечение виктимологической профилактики правонарушений несовершеннолетних требует, прежде всего, изучения факторов, причиняющих вред, в цепи причин и условий совершения преступления. Антиобщественное поведение, образ жизни, негативное отношение одних категорий несовершеннолетних к окружающим являются криминогенными факторами, обуславливающими совершение правонарушителем преступления в одной ситуации, и криминогенными факторами, требующими от потерпевшего стать потерпевшим от правонарушения, - в другой. его прямое влияние на ситуацию.

Ключевые слова: несовершеннолетний, правонарушение, профилактика, преступление, потерпевший, объект, субъект, криминогенный фактор, виктимогенный фактор.

ABSTRACT

The author of the article is scientifically substantiated that the effective provision of victimological prevention of juvenile delinquency requires, first of all, the study of the factors that cause harm in the chain of causes and conditions of crime. The

antisocial behavior, lifestyle, and negative attitudes of certain categories of minors toward others are criminogenic factors that require the offender to commit a crime in one situation, and criminogenic factors that require the victim to be a victim of the offense in another. based on its direct impact on the situation.

Keywords: juvenile, delinquency, prevention, crime, victim, object, subject, criminogenic factor, victimogenic factor.

KIRISH

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida amalga oshiriladigan huquqbazarliklar viktimologik profilaktikasini nazariy ta’minlash, eng avvalo, jinoyat sodir etilish sabab va sharoitlar zanjirida jabrlanuvchining tutgan o‘rnini ilmiy jihatdan tadqiq etish orqali amalga oshiriladi. Kriminologiya va viktimologiyaga oid adabiyotlarda voyaga yetmagan shaxslarning g‘ayriijtimoiy xulq-atvori, hayot tarzi, atrofdagilarga bo‘lgan salbiy munosabatlari muayyan bir vaziyatda huquqbazarlik sodir etilishini taqozo etuvchi kriminogen omil[1] sifatida, boshqa bir holatda esa huquqbazarlikdan jabrlanishini taqozo etuvchi viktimogen omillar[2] bo‘lib har qanday joydagи kriminogen vaziyatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etadi.

Shu bois, voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbazarliklar viktimologik profilaktikasini nazariy ta’minlash, birinchi navbatda, jamiyat ijtimoiy hayotining turli sohalarida mavjud bo‘lgan kriminogen omillar qatori viktimogen omillarni o‘rganishni taqozo etadi.

Jamiyatda har qanday shaxsning, shu jumladan voyaga yetmaganlarni huquqbazarliklar sodir etishini taqozo etuvchi kriminogen xususiyatlarga ega bo‘lgan voqea, hodisa va jarayonlar[3] mavjudligi kabi huquqbazarlikdan jabrlanish ehtimolini vujudga keltiruvchi va jabrlanishini taqozo etuvchi viktimogen xususiyatli sub’ektiv (inson xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan) va ob’ektiv (viktimlikni shakllantiruvchi muhit bilan bog‘liq) omillar ham borligi tadqiqotlarda ilmiy taxlil qilingan[4].

Huquqshunos Q.A. Saitqulovning tadqiqotlarida, shaxsda huquqbazarliklardan jabrlanish ehtimolining mavjudligini ko‘rsatuvchi va jabrlanishini taqozo etuvchi omillarga: a) axloqsizlik (15 foiz); b) ishonuvchanlik (13 foiz); v) huquqiy savodsiz (12 foiz); g) soddalik (5 foiz); d) beparvolik va loqaydlik (10 foiz); ye) qo‘rroqlik (1 foiz); yo) bilimsizlik (5 foiz); j) ochko‘zlik (7 foiz); z) qiziqqonlik (14 foiz); i) yolg‘onchilik (8 foiz); k) insonlarni mensimaslik (4 foiz); l) himoyalanishni bilmaslik (12 foiz) kabi individual viktim xususiyatlarni kiritish mumkin[7].

Shuni alohida qayd etish joizki, tadqiqotlarda huquqbazarliklarning sodir etilish sabablari zanjirida jabrlanuvchi shaxsiga va hayot tarziga xos individual viktim (yoshga

doir) xususiyatlar o‘rni yuqoriligini inobatga olgan holda mazkur xislatlarga xos bo‘lgan toifadagi shaxslar bilan viktimologik profilaktik ishlarni muntazam amalga oshirib borish zarurligini kuzatish mumkin[5].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jamiyat rivojlanishining bugungi bosqichida shaxsda huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimolini vujudga keltiruvchi va jabrlanishini taqozo etuvchi xususiyatlarni shakllantiruvchi ob’ektiv omillarga: a) nosog‘lom muhit (14 foiz); b) ishsizlik (13 foiz); v) adolatsizlik (5 foiz); g) aholining tabaqalashuvi (2 foiz); d) korrupsiya va huquqiy niglizm (16 foiz); ye) «ommaviy madaniyat» (8 foiz); j) milliy qadriyatlar zaiflashuvi (4 foiz); z) migrasion jarayonning jadallahsuvi (3 foiz); i) davlat organlariga ishonchksizlik (5 foiz); k) jabrlanishdan himoyalash va reabilitatsiya tizimi yetarli emasligi (8 foiz); l) jamoatchilik ta’siri sustligi (12 foiz) kabilarni kiritish mumkin[7].

Shuni alohida qayd etish joizki, sub’ektiv va ob’ektiv omillar bir-birini taqozo etuvchi, kuchaytiruvchi xususiyatga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, ular jamiyatdagi barcha, ayniqsa kriminogen xususiyatga ega bo‘lgan voqeа, hodisa va jarayonlar bilan sababiy va korrelyatsion bog‘liqlikda ekanligini hech qachon unutmaslik kerak.

Yuqoridagilarga asoslanib, sodir etilgan jinoyatlarning kriminologik va kriminalistik jihatlarini o‘rganish, bizga voyaga yetmagan jabrlanuvchilarlarga jinoyat sodir etilishiga turki beruvchi omillarni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida o‘tkazilgan anketa so‘rovi natijalariga ko‘ra jinoyatlarning sodir etilishida voyaga yetmagan jabrlanuvchilarlarga turtki beruvchi xulq-atvori o‘rganilganda jabrlanishni yuzaga keltiruvchi omil sifatida: a) *qasddan odam o‘ldirishda* jismoniy ojizligi (12 foiz), qo‘rqaqligi (1 foiz), axloqsizligi (23 foiz), huquqbuzar bilan o‘zaro salbiy munosabatlarning mavjudligi (10 foiz), davomiy zo‘ravonligi (11 foiz); o‘g‘rilikda jabrlanuvchilarlarning mulkni ochiq qoldirishga odatlanganligi (22 foiz), xonadonlarning qo‘riqlash pultiga ulash bo‘yicha tavsiyalarga amal qilmasligi (27 foiz), transport vositasini qarovsiz qoldirishga odatlanganligi (29 foiz), mol-mulkini va boyliklarini ko‘z-ko‘z qilishni yoqtirishi (16 foiz), beparvoligi (5 foiz); d) *nomusga tegishda* jabrlanuvchilarlarning ojizligi (42 foiz), axloqsizligi

(30 foiz), ishonuvchanligi (13 foiz), soddaligi (15 foiz); ye) *qasddan tan jarohati yetkazishda* jabrlanuvchilar xulq-atvoridagi turmushidan nolishi (15 foiz), tarbiyadagi kamchiliklar (40 foiz), huquqbuzar bilan o‘zaro munosabatlarining nosamimiyligi (19 foiz), sha’ni va qadr-qimmatining kamsitilishi (10 foiz), oilaviy maishiy nizolarga sababchi bo‘lganligi (45 foiz) qayd etilgan.

O‘g‘irliklar sodir etilishi sabab va sharoitlari zanjirida ham viktim omillarning yuqori ekanligini sudlar tomonidan ko‘rilgan jinoyat ishlari bo‘yicha materiallar tahlillarida ham ko‘rishimiz mumkin. 2021 yil davomida Qashqadaryo viloyatida o‘g‘irlik jinoyatlarining sodir etilishiga turki bergan omillar o‘rganilganda jabrlanuvchilarining 70,5 foizi beparvolik, 10,8 foizi qo‘riqlash tovush chiqaruvchi vositalari imkoniyatlaridan foydalanmaslik, 9,9 foizi uzoq muddat xonadonini nazoratsiz qoldirganligi, 8,8 foizi kalitlar hisobini yuritmaslik yoki uni boshqa shaxslarga ishonib topshirganligi aniqlangan.

Bundan tashqari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaxsga nisbatan sodir etilgan jinoiy tajovuzlar o‘rganiganida faqatgina 12 foiz jabrlanuvchilar o‘zlarini himoya qilishga qat’iy turgan bo‘lsa, qolgan 88 foizi esa passiv harakat qilganligi kuzatilgan. Bunday holatlarda jinoyat sodir etgan shaxslar jabrlanuvchilarining keyingi xatti-harakatlariga ham alohida e’tibor qaratib kelishgan.

O‘tkazilgan anketa so‘rovida ishtirok etganlarning o‘ziga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanganligi haqida zudlik bilan tegishli organga xabar bermaganligining sababi so‘ralganda respondentlarning 11,9 foizi har doim jinoyatchi tomonidan tazyiq o‘tkazilib kelinganligi, 4,6 foizi ko‘proq o‘zi qo‘rqanligi, 13 foizi biron joyga murojaat qilgan taqdirda uldirish bilan po‘pisa qilinganligi keltirilgan.

Tadqiqotlarda maishiy-turmush sohasida, ayniqsa, oilada voyaga yetmaganning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi qaratilgan jinoyatlar sodir etilishida viktim omillarning ta’siri yuqori ekanligi qayd etilgan[6].

XULOSA

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, jamiyatda voyaga yetmaganlarning viktimalshuvini shakllantiruvchi va uni yanada jonlantiruvchi turli xil muammolarni chuqurroq o‘rganish va tahlil qilgan holda bu kabi shaxslarning huquqbazarlikdan jabrlanishni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladigan huquqbazarliklar viktimologik profilaktikasi faoliyati oldida turgan asosiy vazifalardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ularni o‘z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etish bilan bog‘liq masalalarни ijobiylar hal etish ichki ishlar organlari tomonidan aynan voyaga yetmaganlar o‘rtasida amalga oshiriladigan huquqbazarliklar viktimologik profilaktikasi samaradorligiga bog‘liq.

REFERENCES

1. Musaev M.A. Hayotga qarshi jinoyatlar: nazariya va amaliy muammolari: Monografiya. – T.: «Sharq», 2011. – B.228.; Ismailov I. Uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatining oldini olishni nazariy va tashkiliy-huquqiy ta’minalash: yurid. fan. d-ri. ... dis. –T., 2006. – B.38.;

2. Abdurasulova Q.R. Ayollar jinoyatchiligining jinoyat-huquqiy va kriminologik muammolari: yurid. fan. d-ri ... dis. avtoref. – T., 2006. – B.27-28.;
3. Zakirova O.G. Rashk tufayli sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurash muammolari (jinoiy-huquqiy, kriminologik va viktimologik jihatlari): yurid. fan. d-ri ... dis. avtoref. – T., 2004. – B.23-24.
4. Musaev M.A. Hayotga qarshi jinoyatlar: nazariya va amaliy muammolari: Monografiya. – T.: «Sharq», 2011. – B.228.; 217.
5. Murodov A.Sh. Ichki ishlar organlarining oiladagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish: yurid. fan. bo‘yicha fal. d-ri (PhD) ... dis. – T., 2019. – B.28,110.; 220.; Fazilov I.Yu. Odam savdosiga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari: yurid. fan. d-ri. ... dis. – T., 2016. – B.30.
6. Ismailov I. Kelajak avlod huquqiy madaniyatini shakllantirish va yuksaltirish muammolari // Bola va zamon. – 2008. – 2-son.; Ismailov I., Ziyodullaev M.Z. Talqin, taklif va tavsiyalar. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ijtimoiy xatar guruhiga kiruvchi bolalarni ijtimoiy-huquqiy himoyalash faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishlari // Bola va zamon. – 2010. – 2-son. – B.14-16.; Ismailov I. Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish – barkamol avlod tarbiyasining kafolati // Sog‘lom turmush tarzi – barkamol avlod tarbiyasining asosi: Xalqaro forum materiallari (29-30 noyabr). – T., 2010. – B.264-268.; Ismailov I. Barkamol avlod huquqiy tarbiyasini takomillashtirish muammolari // O‘zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi axborotnomasi. – 2010. – № 2. – B.12-18.
7. Ismailov I. Huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy himoyalashni ta’minalash muammolari // Yoshlar huquqlarini ta’minalash huquqbuzarliklarning oldini olish garovi: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.:O‘zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2008. – B.44-54.
8. Развин Я.М. Виктимология коррупции // Виктимология. – 2016. – № 1/7. – С.53-54.; 254. Вишневецкий К.В. Криминогенная виктимизация социальных групп в современном обществе: Автореф. дис. ... д-ра. юрид. наук. – М., 2007. – С. 3; Википедия // Электронный ресурс]. Режим доступа: – URL: [https://ru.wikipedia.org/wiki/\(дата обращения: 20.05.2020\).;](https://ru.wikipedia.org/wiki/(дата_обращения: 20.05.2020).) Развин Я.М. Виктимология коррупции // Виктимология. – 2016. – №1/7. – С.53.; 260. Кучина М.С. Значимость виктимологической профилактики в системе мер предупреждения преступлений // Электронный ресурс]. Режим доступа: [https://ceberlelininka.ru/article/n_znachimost-viktimologicheskoy-profilaktiki-v-sisteme-mer-preduprezhdeniya-prestupleniy.\(дата обращения: 20.05.2020\).](https://ceberlelininka.ru/article/n_znachimost-viktimologicheskoy-profilaktiki-v-sisteme-mer-preduprezhdeniya-prestupleniy.(дата обращения: 20.05.2020).)

-
9. Муродов А.Ш. Ички ишлар органларининг оиладаги зўравонлик билан боғлиқ хуқуқбузарликлар профилактикасини такомиллаштириш: юрид. фан. б-ча фалсафа д-ри (PhD) дис.... автореф. – Т., 2019. – Б.19.
 10. Сайтқулов Қ.А.. Ички ишлар органларининг хуқуқбузарликлар виктимологик профилактикаси бўйича фаолиятини такомиллаштириш: юрид. фан. б-ча фалсафа д-ри (PhD) дис.... автореф. – Т., 2020. – Б.17.